

SOTSIOLINGVISTIKA VA LINGVOSOTSILOGIYA**Abdurazzoqov Yusufjon Usmoilovich**

FarDU, mustaqil tadqiqotchi

yusuffer@mail.ru**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada sotsiolingvistikada ma'nosi jihatidan juda yaqin bo'lgan ikkita – "sotsiolingvistika" va "lingvosotsiologiya" tushunchalari uchraydi. Lingvistik ilmiy adabiyotda bu ikki tushunchani chegaralashga intilishlar mavjud. Odatda tilshunoslar lingvistik dalillar, til belgilarining variantlari va ularning sotsiumda amalga oshishi sotsiolingvistikaning predmeti hisoblanadi, degan fikrni bildiradilar. Lingvosotsiologiyaning predmetini esa ijtimoiy sharoitlar, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va ular uchun xarakterli bo'lgan til hodisalar haqida qisqacha yoritilgan.

Kalit so'zlar: "sotsiolingvistika", "lingvosotsiologiya", til, nutq, tilning umumiy ijtimoiy tabiat, tilshunoslik tadqiqotlari, asosiy nazariy farazlar, umumiy lingvistik, an'ana, farq qiluvchi, eng muhim, jihatlar, ijtimoiy lingvistika, tilshunoslik, mustaqil, soha, umumiy tilshunoslik, sotsiolingvistika, fan, zaruriyat.

ANNOTATION

In this article, there are two concepts in sociolinguistics that are very close in meaning - "sociolinguistics" and "linguosociology". In the linguistic scientific literature, there are attempts to demarcate these two concepts. Usually, linguists express the opinion that linguistic evidence, variants of language signs and their realization in society are the subject of sociolinguistics. The subject of linguo-sociology is briefly explained about social conditions, social relations between people and language phenomena characteristic of them.

Key words: "sociolinguistics", "linguisticsociology", language, discourse, general social nature of language, linguistic studies, main theoretical assumptions, general linguistics, tradition, distinctive, most important, aspects, sociolinguistics, linguistics, independent, field, general linguistics , sociolinguistics, science, necessity.

KIRISH

Tillarning faoliyatida, rivojida va o‘zaro bir-biriga munosabatida ijtimoiy omillarning rolini ta’kidlab, Yu. D. Desheriyev “biz jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy hayotida o‘zaro kesishadigan va o‘zaro bog‘lanishda bo‘lgan turli xil ijtimoiy omillarning juda murakkab jarayoni bilan ish ko‘rayotganimizni” e’tiborga olish zarurligini ta’kidlaydi [Дешериев, 1977:382]

Sotsiolingvistikada ma’nosи jihatidan juda yaqin bo‘lgan ikkita – “sotsiolingvistika” va “lingvosotsiologiya” tushunchalari uchraydi. Lingvistik ilmiy adabiyotda bu ikki tushunchani chegaralashga intilishlar mavjud. Odatda tilshunoslar lingvistik dalillar, til belgilarining variantlari va ularning sotsiumda amalga oshishi sotsiolingvistikaning predmeti hisoblanadi, degan fikrni bildiradilar. Lingvosotsiologiyaning predmetini esa ijtimoiy sharoitlar, odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va ular uchun xarakterli bo‘lgan til hodisalari tashkil etadi. Bunday fikrni L.B.Nikolskiy bildiradi: “Sotsiolingvistika tildagi u yoki bu ijtimoiy hodisalarning va jarayonlarning aksini o‘rganadi, lingvosotsiologiya esa tilga ijtimoiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy omillarning eng faoli sifatida qaraydi” [Nikolskiy, 1976:18]. Ta’kidlash joizki, tilshunoslarning ko‘philigi bu ikkita tushunchani sinonimlar sifatida qo‘llaydilar.

Sotsiolingvistik tadqiqotlarning xarakteridan kelib chiqib, O. S. Axmanova va A. N. Marchenko bunday tadqiqotlarning uchta yo‘nalishini ajratib ko‘rsatadilar:

“1. Sotsiolingvistika so‘zning keng ma’nosida munosabatning ijtimoiy sharoiti, ijtimoiy tegishlilik, yosh va boshqa omillarning nutqqa ta’sirini aks ettirishga safarbar qilingan.

2. Sotsiolingvistika “til mavjudligi” haqidagi fan sifatida.

3. Sotsiolingvistika mikrolingvistik hodisalar va jamoaning ijtimoiy hayotidagi dalillar o‘rtasida ketma-ket sodir bo‘ladigan o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish bilan shug‘ullanadigan tilshunoslikning bo‘limi sifatida” [Ахманова, 1971:166].

Hatto tilning va jamiyatning o‘zaro bir-biriga ta’siri masalalarini tushunishda ayrim mualliflar tor va keng yondashuvlarni ajratib ko‘rsatadilar, masalan: “tor, faqat jamiyatning ijtimoiy stratifikatsiyasini (turli qatlamlarga, stratlarga bo‘lish)hisobga oluvchi va ancha keng, ijtimoiy omillardan tashqari shuningdek situativ va stilistik omillar. Bu muammoni eng keng ma’noda tushunish kommunikativ jarayonning yaxlitligi tasavvuridan kelib chiqadi va kommunikatsiyaning ijtimoiy va individual jihatlarini bir butun qilib bog‘laydi” [Hozirgi rus tili, 2003:19-20].

Linvistik adabiyotda rus olimlarining til stratifikatsiyasi, tilning nufuzli shakllarini aniqlashga, shuningdek, ijtimoiy rollarning, ijtimoiy mavqelarning

(statuslarning), ijtimoiy guruhga oid qadriyatlarning va ularning sohiblarining nutqi muammolariga bag‘ishlangan ishlari mavjud [Крисин, 1988:124-143].

L.P.Krisinining ta’kidlashicha, “ijtimoiy rol” tushunchasi “jamiyat tomonidan normativ ma’qullangan, mazkur ijtimoiy pozitsiyani egallagan har bir kishidan kutiladigan fe’l-atvor namunasini” bildiradi. Bu yerda shuni nazarda tutish lozimki, ijtimoiy rollar inson fe’l-atvorining zarur xarakteristikalari, uning nutq muomalasi, xususan, u tilda u yoki bu holda qanday aks etadi, masalan: u ziyoli odam kabi gapiradimi, bozordagi sotuvchi kabi qichqiradimi, haydovchi kabi so‘kinadimi, boshliqning muomaladagi ovoz ohangi va h.k. bilan umuman bog‘langan.

“Ijtimoiy mavqe (status)” tushunchasi V.I.Karasik tomonidan shunday tushuntiriladi: “bu individning ijtimoiy guruh iyerarxiyasida (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo‘ysunishi) formal belgilab qo‘yilgan yoki e’tirozsiz tan olingan o‘rni” [Карасик, 1992:330]. Bu ikki tushuncha, ya’ni ijtimoiy rollar va ijtimoiy mavqe ijtimoiy orzular va normalar bilan bevosita bog‘langandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nazarda tutish lozimki, ijtimoiy lingvistika, boshqa tilshunoslik fanlari kabi, rang-barang va ko‘pincha bir-biriga zid bo‘lgan konsepsiyalarga va nazariyalarga boy. Masalan, ayrim olimlar til ijtimoiy omillarga to‘liq bog‘liq va unda sodir bo‘layotgan barcha narsa faqat ijtimoiy nuqtai nazardan tushuntirilishi mumkin, deb hisoblaydilar. O‘z ishlarida, ijtimoiy omillar ularning rivojiga va ishlashiga ta’sirini o‘rganishning zaruriyatini tan olib, Ye.Kurilovich boshqacha fikr bildiradi: “Birinchi qarashda til tizimiga tashqi bo‘lib tuyilgan ijtimoiy omil, aslida u bilan organik bog‘langandir. Belgining tizim ichida qo‘llanilishining kengayishi uning til jamoasida qo‘llanishi kengayishining in’ikosidir xolos. Bu munosabat nafaqat dinamik jihatdan, balki statik jihatdan ham xarakterlanadi ... belgining mazmuni qanchalik umumlashtirilgan (kambag‘al) bo‘lsa, uning so‘zlovchilar tomonidan qo‘llanilish doirasi shu darajada kengdir; mazmun qanchalik maxsus (boyroq) bo‘lsa, nafaqat ichki (tizim ichidagi), balki tashqi (til jamoasidagi) qo‘llanish doirasi shunchalik tordir”.

Sotsiolingvistik tadqiqotlar Chexoslovakiyada ham olib borildi. V.Matezius, B.Gavranek, A.Yedlichka, Y.Vaxek, V.Skalichka, Y.Kraus kabi chexoslovakiyalik tilshunoslarga sotsiolingvistika sohasidagi bir qator nazariy g‘oyalar va qoidalar tegishlidir. Chex sotsiolingvistikasi uchun tilning va til vositalarining ijtimoiy tabaqalanishida namoyon bo‘ladigan, tilning tuzilishiga va tizimiga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy omillar haqidagi masala eng asosiy masalalardan biri edi. Ko‘pincha tilning va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatadigan XX asrning

dastlabki uch choragidagi ilmiy tadqiqotlardan farqli ravishda, hozirgi sotsiolingvistik tadqiqotlarda, shu jumladan, chexiyalik olimlartadqiqotlarida, ijtimoiy-til munosabatlari va tobekliklarini sinchiklab nazariy ishlab chiqishga va aniq tahlil qilishga intilish kuzatiladi.

NATIJALAR

Chexoslovakiyalik sotsiolingvistlarning nazariy g‘oyalari “Praga lingvistik to‘garagine tezislariiga” borib taqaladi. Unda “nutq faoliyatini qismlarga ajratishda til kontaktida bo‘lgan so‘zlovchilarning o‘zaro munosabatlari muhim omil bo‘lib xizmat qiladi: ularning ijtimoiy, professional, territorial va urug‘chilik munosabatlari, shahar tillarida lingvistik tizimlarning qorishuvini keltirib chiqaruvchi ularning bir necha jamoalarga mansubligi” qayd qilingan. Bunga chet el tillari muhiti bilan munosabatga moslashtirilgan tillararo (umumiy deb ataluvchi tillar) munosabatlarning muammosi, shuningdek, lingvistik qatlamlarning shaharlarda taqsimplanishi muammosini ham tutashtirishadi” [Praga lingvistik to‘garagi, 1967:26]. Praga lingvistik to‘garagi a’zolarining biri A.Yedlichka, barcha tillar bir xil tizim sifatida emas, balki til variantlarining katta soni ko‘rinishida mavjud bo‘lishi va ishlashini nazarda tutib, qayd qiladi: “Tarixiy o‘zaro bog‘liq variantlarning mumkinligi umuman shubhaga qo‘yilmasligi kerak, u normalarning xarakterini tan olish bilan, adabiy tilda yuz beradigan evolyutsion jarayonlarni tan olish bilan bog‘liq. Normaning rivoji aynan variantlarning sharofati bilan sodir bo‘ladi”. Shunday qilib, variantlarni o‘rganishga alohida ahamiyat va muhimlik bag‘ishlanadi.

MUHOKAMA

Hozirgi chexoslovak sotsiolingvistikasi uchun ijtimoiy omillarning til rivojiga ta’sirini tadqiq qilishning bir qator sikli xarakterlidir. Chexoslovak lingvistikasi an’anasiga ko‘ra, sotsiolingvistika til va jamiyatning o‘zaro bog‘lanishini o‘rganadigan ilmiy fan sifatida ta’riflanadi. Shuningdek, ular tilning kommunikativ vazifalarini diqqat bilan o‘rganadilar[Akhrorova, 2022:108].

Tilning kommunikativ vazifalari muammosini, ya’ni qanday omillar qay tarzda so‘zlovchini mazkur har bir fursatda unday emas bunday gapirishga majbur qilishini hal qilishda, ular psixolingvistika ma’lumotlarini hisobga olish zaruriyatiga keladilar. Nazarimizda, funksional stilistika psixolingvistika va sotsiolingvistika o‘rtasidagi bog‘lovchi zveno bo‘lishi mumkinligi haqidagi ularning yuqoridagi fikri diqqatga sazovordir[Akhrorova, 2022:178].

XULOSA

Chex tilshunoslarining o‘ziga xos farq qiluvchi xususiyati sotsiolingvistikaning boshqa aralash fanlar, masalan, psixolingvistika va kibernetika bilan o‘ziga xos muhim xususiyatlarini ohib berishdan iboratdir, chunki boshqa aralash fanlar bilan bog‘liqlik sotsiolingvistikaning nazariy imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi [Akhrorova, 2023:187].

ADABIYOTLAR

1. Ахманова О.С., Марченко А. Н. М.: 1971.– 166 с.
2. Akhrorova Ruzikhon Usmanovna. “Yosh tushunchasi lingvistik talqini”. Innovative Development in Educational Activities, 2023. B.187-190.
3. Akhrorova Ruzikhon Usmonovna. Naming of the “age” concept. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022/10/20. –P. 178-182.
4. Akhrorova Ruzikhon Usmonovna. Essay writing terms. Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2022/12/22. –P. 107-109.
5. Дешериев Й.Д. Ижтимоий тилшунослик. Умумий назария асосларига қараб, Москва: Наука, 1977, 382 б.
6. Карасик В.И. Ижтимоий ҳолат тили.-М.: РФА Тилшунослик инцитути; Волгоград давлат педагогика институти, 1992, 330 б.
7. Крисин Л.П. Тил бирликлари семантикасидаги ижтимоий компонент // Ижтимоий омилларнинг тилнинг ишлаши ва ривожланишига таъсири. - Москва: Наука, 1988.- 124-143-бетлар.
8. Nikolskiy L.B. Введение в социолингвистике. –М. 1976. С.18.
9. Praga lingvistik to‘garagi’: M.: 1967, 25-26.